



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY  
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:  
[dav\\_ekspertiza@mail.ru](mailto:dav_ekspertiza@mail.ru) [www.mc.uz](http://www.mc.uz) [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAEV BOBIR A

Sana: 16-08-2023 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 117900**

**Obyekt nomi** «Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qorasaroq ko`chasidan Norastepa ko`chasigacha bo`lgan hududda sug`orish ehtoyojlari uchun yer osti qudug`ini barpo etish.»

**Buyurtmachi** - Maxsus sug`orish uskunalarini ta'mirlash va saqlash ixtisoslashtirilgan boshqarmasi.

**Bosh loyihachi** - "Construction Measuring Company" MChJ

**Litsenziya** AL-001607-son, 01.02.2021 yil O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi.

**Moliyalashtirish manbai** - Byudjet mablag`lari hisobidan.

**Bosh pudratchi** - Tanlov asosida aniqlanadi

**Qurilish turi** Sug`orish tizimlari uchun suv chiqarish qudug`ini qurish

**Murojaat raqami:** № 99157

**1. Loyihalash uchun asos**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-son Farmoyishi.

Buyurtmachi tomonidan 2023-yil 15-mayda tasdiqlanib, Bosh loyiha tashkiloti bilan kelishilgan texnik topshirig`i.

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, "O'zbekgidrogeologiya" DUKning 2022-yil 2-maydag'i TS0400-son "Gidrogeologik xulosa"si.

"O'zbekgidrogeologiya" DUK tomonidan ishlab chiqilgan "Gidrogeologik xulosa"si.

Buyurtmachining 2023-yil 22-iyundagi 4/193-son, 15-iyundagi 255-son hamda 1-avgustdag'i 4/249-son xatlari.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Olmazor REP"ning 2023-yil 15-maydag'i 24-0215-son texnik sharti.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

Loyiha-smeta hujjalarning "ishchi loyiha" bosqichida quyidagi qismlardan iborat:

Quduq loyihasi.

Elektr tizimi.

Qurilishning xarajatlar umumiy smeta hisob-kitoblari.

### **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

Loyiha doirasida Olmazor tumani, Qorasaroy ko`chasidan Norastepa ko`chasigacha joylashgan hududda sug`orish ehtoyojlari uchun yashil maydonlarni sug`orish suvi bilan ta'minlash uchun 1 ta quduq qazish masalasi hal etilishi ko`zda tutilgan.

Quduqni rotorli burg'ulash loyihalangan, URB-2.5A.

Quduqning taxminiy chuqurligi 120 metr.

0,0 - 40,0 m - zich tuproqli

40,0 - 120,0 m - qum, alevoli, qumtosh va gil oraliq qatlamlili tosh loy.

Kutilayotgan sho'rланish ko'rsatkichlari 1,0 g/l.

Quduqning oqim tezligi 5,0 litr/sekundgacha.

Burgu`lashda.

0,0-80,0 metr - D 295 mm.

80,0-120,0 metr - D 190 mm.

Chuqurlikga uzatish quvurlari:

0,0-80,0 m - quvurlar d=219 mm

80,0-105,0 m - quvurlar d=159 mm

105,0-115, filtri d=159 mm

115,0-120, quvurlar d=159 mm.

Metal quvurlaridan foydalanilgan.

#### **Xarajatlар smeta hisob-kitob hujjatlari.**

Ob`ektning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sod qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan ob`ektning ekspertiza ko'rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa harajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda 265 396,349 ming so'mni tashkil qiladi.

#### **4. Loyihalanayotgan ob`ektning muhandislik ta'minoti:**

Ushbu obyektda quduq loyihasi hamda elektr qismi ko`rib chiqildi.

Eslatma: Buyurtmachi va bosh loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdaggi 256-sod qarori talablariga rivoja qilinsin.

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Olmazor tumani elektr tarmoqlari bilan kelishilgan.

Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-sod qarori talablariga rivoja qilinsin.

## **6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza taqdim etilgan ishchi loyihaning quduq loyihasi hamda smeta hujjatlari ko'rib chiqildi.

Eksperiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- Buyurtmachining 2023-yil 15-iyundagi 255-sonti taqdim qilindi;
- Buyurtmachining 2023-yil 1-avgustdaggi 4/249-sonti xatiga asosan loyiha tashkilotining oratiq ekspert xulosalariga javob xatlari taqdim qilindi;
- O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, "O'zbekgidrogeologiya" DUKning 2022-yil 5-maydagi TS0400-sonti gidrogeologik xulosasi taqdim qilindi;
- ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihasidagi tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida joriy narxlarda QQS bilan hisoblanganda -46 212,666 ming so'mga kamaytirildi.

Ishchi loyihasining dastlabki smeta harajatlar hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi ish hajmlari, qurilish me'yordi hamda qurilish materiallari narxlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblanish natijasida o'zgartirildi.

Buyurtmachi tomonidan belgilangan suv talabini qondirish, burg`ulangan quduq natijasiga ko`ra aniqlanadi.

Buyurtmachi ob'yekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarini sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonti Qonun talablariga riosa etilsin.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy harajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda loyihalash topshirig`inig tegishli bandlariga asosan manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonti qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari, foydalanuvchi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdaggi 255-sonti va 256-sonti, 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonti hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-sonti qarorlar talablariga amal qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonti qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqidani foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-sonti qarori va QMQ 2.01.04-18 "Qurilish issiqlik texnikasi" talablariga to'liq riosa qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-son farmonining tegishli bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq riosa qilinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ekspertiza natijalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, e'tiroz va qo'shimcha ko'rsatmalar mavjud emas.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga riosa qilinsin.

Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarini sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

## **7. Xulosalar.**

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qorasaroy ko'chasidan Norastepa ko'chasigacha bo`lgan hududda sug`orish ehtoyojlari uchun yer osti qudug`ini barpo etish" ishlarni amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko`rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori, buyurtmachning boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan hisoblanganda 219 183,683 ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:

- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel invertar jihozlar - 12 342,000 ming so'm;
- qurilish materiallari va mahsulotlari uchun sarflanadigan transport xarajatlari bilan birgalikdagi xarajatlar - 83 208,487 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda - 28 457,080 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar - 44 689,611 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%) - 27 002,539 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (12%) - 23 483,966 ming so'mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi 684-sodan va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sodan qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

**Bosh mutaxassis:** Asatillayev Sardor Asatilla o'g'li

**Ishtirokchi ekspertlar:**

Alimjanov Muzaffar Anvarovich

TURAEV SHOHRUX ILXOMOVICH

DOSMUXAMEDOVA MARIYA VALEREVNA

Жиззах Тошлоқ 24 каватли квартира [Faylni ko'rish](#)

